

SHAYBONIYLAR DAVRIDA SAMARQANDDA BARPO ETILGAN KO'PRIKLAR, TOG'ONLAR BOZORLAR HAQIDA.

Salimova Farida Sobirjon qizi

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat
Universiteti Tarix Fakulteti 2-kurs magistranti.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shayboniylar davrida Samarqanddagi bunyodkorlik ishlari, me'moriy obidalar, ko'priklar va to'g'onlarning qurilishi, faoliyati haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Аннотация: В статье представлены подробные сведения о строительстве и функционировании архитектурных памятников, мостов и плотин в Самарканде в период Шейбанидов.

Annotation: This article provides detailed information about the construction and activities of architectural monuments, bridges, and dams in Samarkand during the Shaybanid period.

Kalit So'z: “tilla”, “tanga”, Vaqf mulklari, “davlat ta'minoti”, Ko'kaldosh madrasasi,

Shayboniylar hukmronligi davrida madrasalarda talabalarga 2 turdagi ilmlar: *diniy va dunyoviy bilimlar* o'qitilgan. XVI asrlarda Buxoro madrasalarida ta'lim olgan juda ko'p ziyolilar Buxoro xonligida o'ziga xos ilmiy-ma'naviy muhitni vujudga keltirdi. Natijada o'z davrining tilshunos, adabiyotshunos, tarixchi, shoir va adiblari, mashhur tabib hamda olimlari yetishib chiqdi^[1].

Hujralarda ikki nafardan talaba yashagan, uzrli sababsiz o'z o'rnini muttasil ikki oy tark etgan kishi madrasadan haydalgan.^[2]

Talabaning turar joyi bilan darsxona boshqa- boshqa joyda bo'lgan hollarda talabalar 2-3 chaqirimlik yo'lni bosib o'tishlariga to'g'ri kelgan. Talaba o'qish vaqtidan boshqa har bir dars uchun 2-3 soat vaqt sarflashga majbur bo'lardi. Odatda, madrasaning mudarrisleri, ayniqsa, nom chiqargan domlalar bir kunda o'rtacha 8 dan 12 gacha dars berishni o'z zimmalariga olardilar.^[3]

O'sha davrlarda mahalliy muallimlar ta'lim- tarbiya ishlariga keng jalb etilgan. Zayniddin Vosifiy Toshkentda Navro'z Ahmadxon huzurida muallimlik qilgan. Bu paytda bolalar 6 yoshdan maktabga qabul qilingan. Ularga alifbodan saboq berilib, yozuv- chizuvlar o'rgatilib, so'ngra bolalar maktablardan madrasalarga qabul qilingan.

Madrasa faoliyatida ishtirok etuvchi shaxslar belgilangan tartibda oylik maosh bilan ta'minlangan. Maosh ko'p hollarda “tilla”, “tanga” pul birliklari bilan ifodalangan.

Jo'ybori kalon Buxorodagi eng dovuqli madrasalaridan biri edi. Unda so'nggi paytlarda 16 nafar mudarris dars o'tgan. Rasmiy hujjatlarning birida ularning ro'yxati quyidagicha ko'rsatilgan: *“Mullo Sulton, mulla Xudoyquli, mulla Ibrohim, mulla Said Ahmad, mulla MirFuzayl, mulla Sulaymonxoja, mulla Yahyoxoja, mulla Mansurbii, mulla Mahdixoja, mulla Nasriddin, mulla Qavomiddin, mulla Abdukarim, mulla Abduvohid, mulla Ibrohim qo'lobii, mulla Solihxoja va mulla A'loxoja.*

Har bir mudarrisning yillik maoshi taxminan 40 tillani tashkil etgan. Lekin ba'zi hujjatlarda mudarris 45 tilla haq olgan. Bunday ikki xil ma'lumot uchrashining sababi, ba'zi paytlar Jo'ybori kalonda 13 nafar mudarris dars o'tgan ekan. Demak, 3 nafar mudarrisning haqqi qolganlarga bo'lib berilgan. Tadqiqotlarda madrasalar mulki va ta'lim tizimi ta'minoti to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Oliy hokimiyat devoni va qozi idorasida o'quv ishlari bilan bog'liq hujjatlar yillar davomida to'plab borilgan. Ish chog'ida ularning ayrim qismi topildi. Ular bizda Buxoro shahri talim tizimi ta'minoti haqida tasavvur hosil qildi. Hujjatlardagi axborotlar ancha oldin to'plangan. Bu oraliqda pulning qiymati o'zgarib boragan. Shu sababdan turli tadqiqotlardagi ma'lumotlarda farq bo'lishi, tabiiy. Maktabda o'quvchilarning ota-onalarida va vaqf mulklaridan tushadigan mablag' hisobiga faoliyat yuritgan.^[4]

Madrasalarning asosiy daromadi vaqf mulklaridan bo'lganligi uchun yaxshi hosil olinmagan yillari qiynalgan talabalar va mudarrislar muammosini hal qilish maqsadida madrasalarni davlat hisobiga kiritgan va ularga davlat byudjetidan mablag' ajratilgan. Markazlarda nafaqat boylar, balki kambag'allarning bolalari ham o'qish huquqiga ega bo'lgan va nafaqa, kiyim-bosh bilan ta'minlangan.^[5]

Jo'ybor xojalari o'z dor-ush-shifolarida (shifoxona) ishlash uchun mashhur va eng yaxshi hakimlarni yollab, ularga vazifa, mavqe' va xizmatlariga muvofiq turli miqdorda haq-maosh to'laganlar yoki in'om-ehsonlar qilish yo'li bilan ularni ishlatib, dor-ush-shifo va dorixonalardan keladigan daromadlar bilan o'z boyliklarini orttirganlar.^[6]

Tarixiy asarlarda keltirilishicha, madrasalarda ta'lim olayotgan talabalarning barchasi ma'lumot darajasiga qarab 3 guruhga bo'lingan va ana shu guruhlariga qarab stependiya va moddiy ta'minot ham oshirilgan. Shuningdek, tadqiqotlarda madrasada xizmat qilish va belgilangan kunlarda mashg'ulotlarga qatnashish majburiy bo'lib, xizmatchilar va o'quvchilarning kelib-ketishini maxsus kishilar hisobga olib borgan. Barcha xizmatchilar va madrasada ta'lim oluvchilarning ta'minoti pul va mahsulot (natural) shaklida bo'lib, yuqori guruhda o'quvchilarning har qaysisiga bir oyda 45 mis dinor va har yili 25 dinor va yiliga 30 mann g'alla berilgan.^[7]

XVI asrda ta'lim muassasalarining ta'minot tizimi o'rta asrlarda qaror topgan an'analar asosida rivojlangan. Bu sohaga deyarli o'zgartirishlar kiritilmagan.

Mudarrislar va talabalar avvalgidek vaqf mulklaridan tushadigan mablag'lar va davlat ta'minoti orqali moliyalashtirilgan.

Har yili minglab talabalarning ilm istab Buxoroga kelishlarini hisobga olsak, moddiy ta'minot masalasi eng katta muammolardan ekanligiga guvoh bo'lamiz. Negaki, talaba ta'minot siz o'z- o'zidan ilmi bo'lib qolmaydi, mudarris esa o'z kuchi va vaqtini sarflab talabalaarga saboq bermaydi. Chunki manfaat bo'lmasa, hech kim o'z ishini sidqidildan bajarmaydi. Hayot qonuniyati shunday, albatta.

Vaqf mulklari hisobidan ta'minlanadigan madrasalar ta'minoti ob- havoning qanday kelishi, dehqonchilik va hosilning qay darajada olinishiga bog'liq bo'lgan.

Agar suv mo'l bo'lib, hosil yaxshi olinsa, madrasalar ham yaxshi ta'minlangan. Agar buning teskarisi bo'lsa, mudarris va talabalar qiyin vaziyatda qolishgan. Bunday sharoitda davlat ta'minotining yordamga kelishini manbalar orqali ko'rib o'tdik. Chunki bu masala qanday yo'l bilan bo'lsa- da, vaqtida hal qilinishi kerak bo'lgan muammo bo'lgan.

Madrasalardana faqat diniy bilimlar, balki dunyoviy fanlar ham o'qitilishini, ayrim maktablar alohida ixtisosga ega ekanligini bilib oldik. Bu davrda asosan tibbiyot sohasiga qiziqish kuchayib borayotgan edi. Ibn Sino bobomiz qarashlari va asarlari ta'sirida tib ilmiga oid salmoqli risolalar yaratiladi va o'z davrining mashhur "Ibn Sino izdoshlari" kamol topadilar.

Bu o'rinda Jo'ybor xojalarining tadbirkorligi haqida to'xtalib o'tsak. Ularga yillar mobaynida ota- bobolaridan ulkan hajmda yer- mulk va meros qolgan edilar. Bu mablag'lar ularning yetti avlodlari uchun ham yetardi, albatta. Lekin xojalar o'z boyliklarini yanada ko'paytirish yo'llarini izladilar va topdilar: o'sha davrlardayoq dorixonalar bunyod etib, mashhur tabiblarni jalb qilib, ularni maosh bilan ta'minlab, yanada katta sarmoyalarga ega bo'ldilar. Salomatlik hamma zamonlarda kishilar uchun bebaho boylik ekanligini hisobga olsak, bemor bo'lgan kishilar o'z sog'liklarini tiklash uchun mablag'larini ayamaydilar. Xojalar buni yaxshi his qilgan edilar. Natijada ularning boyliklari yanada ko'paygan.

Bu davr ta'lim tizimida o'rnatilgan qoidalardan biri-ularning 3 guruhga bo'lingani va baholariga qarab stependiya olishlari edi. Bu an'ana bizning davrimizgacha yetib kelgan. Oliy ta'limda tahsil oluvchi talabalarga imtihon natijalariga qarab, ya'ni 3, 4, 5 baholariga qarab stependiya to'lanishi aynan shu jarayonga o'xshab ketadi.

Buxoro xonligida talabalarning yuqori (a'lo), o'rta va quyi guruhlarga mansublik uchun bir- birlari bilan musobaqalashib o'qishlari aynan mana shu moddiy ta'minotning har xil taqsimlanishi bilan bog'liq hodisa. Talabalar yaxshiroq stepindiya olish uchun a'lo baholarga o'qishga harakat qilganlar.

Buxoro xonligida ta'lim muassasalarining ta'lim tizimidagi muhim muammosi, bu, albatta, moddiy ta'minot masalasi bo'lgan. " Tizimni tashkil qilish va boshqarish qanchalik muhim masala bo'lsa, uning moliyaviy tomonini yo'lga qo'yish ahamiyati

undan kam bo'lmagan murakkab ijtimoiy jarayon edi. O'quv dargohlarida yuzlab olimlar dars o'tgan va minglab talabalar ta'lim olgan. Ularning barchasi ilm tahlilga mashg'ul bo'lishi bilan birga kun kechirishlari ham kerak edi. Hech zamonda qorni nonga to'ymagan och-yalang'och, muhtoj kishining ilmga rag'batini bo'lganmi? Har yili minglab talabalar Buxoro o'quv dargohlarini tugatgan va ularning o'rniga yangilari kelgan. Uzoq zamonlardan beri to'xtovsiz davom etib kelayotgan bu jarayonda ilm ahlining moddiy ta'minoti muammosi qanday hal etilgan? Qarshimizda ikkita asosiy qatlamdan iborat ijtimoiy- iqtisodiy tizim namoyon bo'ldi. Ular ham o'ziga xos ichki qonuniyat va qurilishdan tashkil topgan edi. Biz ularni shartli ravishda "vaqf mulklari" va "davlat ta'minoti" deb atadik.^[8]

Tadqiqotlarda madrasalar mulki va talim tizimi taminoti tug'risida malumotlar bor, ammo kup emas. Oliy xokimiyat devoni va kozi idorasida uquv ishlari bilan bog'lik xujjatlar yillar davomida tuplab borilgan. Ish chog'ida ularning ayrim qismi topildi. Ular bizda Buxoro shaxri talim tizimi taminoti xaqida tasavvur xosil kildi. Xolbuki, topilgan xujjatlar dengizdan tomchi edi. Ularning katta qismi shurolar inqilob davridagi qonli kurashlar, vayronagarchiliklar oqibatida yuq bulib ketgan. Yetib kelgan kichik qismi xam qidirganimizni topishimizga yetarlicha kumak berdi. quyida mudarrislar va talabalarning tarixiy rasmiy xujjatlardan terib olingan maoshi miqdori ruyxatini keltiramiz.

Ko'kaldosh madrasasi. Oxund dars utgan, tarixiy xujjatlarning birortasida uning ishga taynlanishi maoshiga oid malumot uchramadi.

Tizim tartibiga kura, u xammadan kuproq xaq olishi kerak. Faqat N. Xanikov ushbu madrasa mudarrisi 360 tilla olishi tug'risida axborot beradi.

Govkushon madrasasi. Alam maoshini aniklashning xam iloji bulmadi.

Mir Arab madrasasi. Maoshi 11000 tanga.

Xoja Nixol madrasasi. Maoshi 5200 tanga.

Xoja Davlat madrasasi. Maoshi 5000 tanga.

Mavlono Miskin madrasasi. Maoshi 4000 tanga.

Mulla Muxammad Sharif madrasasi. Maoshi 2800 tanga.

Devonbegi madrasasi. Maoshi 2600 tanga.

Abdullaxon g'arbiy madrasasi. Maoshi 180 tilla.

Naqib madrasasi. Maoshi 2400 tanga. ,boshqa xujjatda 100 tilla.

Mulla Ernazar madrasasi. Maoshi 1300 tanga.

Abdullaxon sharqiy madrasasi. Maoshi 100 tilla. Bu birinchi qavatdagi darsxonada uquv mashg'ulotlarini olib boruvchi uqituvchining yillik daromadi edi. U muftiy bulgan ikkinchi qavatdagi darsxonada talabalarni uqitgan mudarrisning yillik ish xaqi 70 tilla. U mufti emasdi.

Poyandabiy otaliq madrasasi maoshi 90-100 tilla atrofida.

Muxammad Ali xoji madrasasi. Maoshi 85 dan 90 tillagacha.^[9]

Talabalar maoshi

Tursunxuja sadr gurxonasi xujralari. Joy xaqi 10 tilla.

Oliy chubin madrasasi. Joy xaqi 10 tilla. Boshqa xujjatda xujra xaqi 7 tilla. 6 tilla yozilgani xam bor.

Nematboy gurxonasi xujralari. Joy xaqi 6 tilla.

Abdullaxonning sharqiy madrasasi. Kuniga 0,5 tanga.

Mulla Abduraxim madrasasi. Joy xaqi 3 tilla.

Poyandabiy madrasasi. Yiliga 24 tangadan xaq berilgan.

Mirzo Solix gurxonasi xujralari. Xujraning bir tarafi xaqi ikki tilla.^[10]

Madrasalarda o'qish muddati cheklanmagan, madrasalarni tamomlash ko'p hollarda talabalarning iqtidori, mehnatsevarligi va qobiliyatiga bog'liq bo'lgan. Madrasalarni bitirgan talaba fors va arab tillarni bilishi, mantiq, boshlang'ich geometriya va 4 amal arifmetik harakatlarni hamda shariat asoslarini bilishi shart edi. Talabalarga grammatika, fiqh, tafsir, hadis, kalom kabi maxsus fanlar o'qitilgan. Madrasalardagi ta'lim kechgacha davom etgan va haftaning shanba, yakshanba, chorshanba va seshanba kunlari o'tkazilgan. Dars kunlari mudarris madrasada istiqomat qilgan. O'rnatilgan qoidaga ko'ra talaba madrasada tahsil olish, uning hujrasida yashash, moliyaviy ta'minot olish uchun ichki tartibga rioya etishi talab qilingan. Uzrsiz sabab tufayli madrasani ma'lum muddatga tark etish taqiqlangan, qoidani buzgan talaba o'qish va yashash joyi (hujra) dan mahrum etilgan.^[11]

Tarixiy asarlarda keltirilishicha, madrasalarda ta'lim olayotgan talabalarning barchasi ma'lumot darajasiga qarab 3 guruhga bo'lingan va ana shu guruhlariga qarab stependiya va moddiy ta'minot ham oshirilgan. Shuningdek, tadqiqotlarda madrasada xizmat qilish va belgilangan kunlarda mashg'ulotlarga qatnashish majburiy bo'lib, xizmatchilar va o'quvchilarning kelib-ketishini maxsus kishilar hisobga olib borgan.

Barcha xizmatchilar va madrasada ta'lim oluvchilarning ta'minoti pul va mahsulot (natural) shaklida bo'lib, yuqori guruhda o'quvchilarning har qaysisiga bir oyda 45 mis dinor va har yili 25 dinor va yiliga 30 mann g'alla berilgan.^[12]

“U joyda (Abdullaxon madrasasida) o'quvchilar ham yaxshi maosh bilan ta'minlanib, hamisha xotirjamlik bilan mutolaa qilishga kirishardilar.”^[13]

Mashhur tarixchi Hofiz Tanish Buxoriyning ushbu ma'lumoti ham Abdullaxon II ining ilm-fan jonkuyari va ahli ilm homiysi bo'lganligini isbotlaydi. U barcha madrasalar va boshqa ta'lim muassasalarida talabalarning bilim olishlari uchun yetarlicha shart-sharoit yaratib bergan. Mudarris va talabalarning moddiy ta'minotini ham nazardan chetda qoldirmagan. Ularning yashashi va o'qishi uchun eng muhim bo'lgan ushbu “zarurat”ni ham hal qilgan. Ya'ni ma'naviy hayotning moddiy hayot bilan hamohanglikda ekanligini yaxshi anglagan. Chunki moddiy yehtiyojlari qondirilmagan inson kitob o'qishga, ilm olishga mayl bildiradimi? Abdullaxon II ana

shu savolning javobini o'rta asrlardayoq to'la anglab yetgan ma'rifatli hukmdorlardan edi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, qilingan mehnatni munosib taqdirlash va uni rag'batlantirish xalqimizning qon- qoniga singib ketgan muhim omillardan biridir. Chunki rag'bat katta-yu kichikka birdek zarur. Qaerda inson mehnati qadrlansagina, o'sha jamiyatda yuksalish va rivojlanish bo'ladi. Bugun qilingan halol ish o'z qimmatini topsa, ertaga yana va yana izchillik xuddi shu nday davom etaveradi. Bu haqiqat asrlar davomida o'z isbotini topib kelayotir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Kerenskiy F.M. Medrese Turkestanskogo kraya //Turkestanskiy sbornik.Tom 418. – Tashkent, 1907. – S. 6.

Bendrikov K.E. Ocherki po istorii narodnogo obrozavaniya v Turkestane. ... – S. 53.

Bobojonova F. Buxoro amirligida ta'lim tizimi . – T, 2014. – B. 42-43.

Jumanazar A . Buxoro ta'lim tizimi tarixi.- Toshkent.: Akademnashr, 2017. 56- 57 betlar

Jumanazar A .Buxoro ta'lim tizimi tarixi.- Toshkent.: Akademnashr, 2017 y. 75 – bet.

Asrorova L. Buxoro madrasalari tarixidan.- Toshkent.: Hilol- nashr, 2017 y. 10-11 betlar.

BekchanovI. Hasanxoja Nisoriy Muzakkiri ahhob tazkirasi va XVI asr o'zbek adabiyoti.Toshkent,1993y.3bet. Q

andaxorov A. Buxoro xonligi va unda karmanalik shayxlar faoliyati.- Toshkent.: Tafakkur qanoti, 2008 y.

Bekchanov I. Hasanxoja Nisoriy Muzakkiri ahhob tazkirasi va XVI asr o'zbek adabiyoti. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss avtoref -- Toshkent., 1993 y. 10- bet.

Bobojonova F. Buxoro amirligida ta'lim tizimi.- Toshkent.: Adib, 2014 y. 64 bet.